

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL


9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN‘IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIY TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIY XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIVAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOIYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOIYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIVALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

LOGISTIKADA OMBORXONA XO‘JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Boymatov O‘tkirbek Tilovmurod o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Transport
muhandisligi va logistikasi kafedrası assistenti

ORCID:0009-0003-4849-2382

E-mail: utkirbekboymatov92@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada logistika tizimi doirasida omborxona xo‘jaligi faoliyatini boshqarish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini keng qamrovda tahlil etilgan. Omborlarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni, ularning funksional vazifalari hamda logistika zanjiridagi roli asosli tarzda yoritilgan. Tadqiqotda omborxona faoliyatini takomillashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va logistika xizmatlari sifatini yaxshilash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirish va raqamli yechimlarning ombor tizimlariga integratsiyasi orqali operatsion jarayonlar samaradorligini oshirish yo‘llari tavsiflangan. Shuningdek, ombor turlarining ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga ko‘ra tasnifi hamda xizmat ko‘rsatish sohasiga muvofiq klassifikatsiyasi ilmiy asosda bayon etilgan. Xulosa va takliflar qismida omborxona xizmatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: omborxona xo‘jaligi, logistika, omborxona logistikasi, saqlash va taqsimlash tizimi, innovatsion boshqaruv.

Аннотация

В статье всесторонне рассмотрены теоретические и практические аспекты управления и развития складского хозяйства в рамках логистической системы. Обосновано значение складов в производственных и сервисных процессах, а также их функциональная роль в логистической цепочке. В исследовании проанализированы возможности повышения эффективности использования ресурсов, сокращения издержек и улучшения качества логистических услуг за счёт совершенствования складской деятельности. Описаны пути повышения операционной эффективности посредством интеграции современных технологий, автоматизации и цифровых решений в складские системы. Также проведена научная классификация типов складов в зависимости от их роли в производственном процессе и в сфере обслуживания. В заключении предложены практические рекомендации по модернизации складских услуг, внедрению инновационных технологий и развитию человеческого капитала.

Ключевые слова: складское хозяйство, логистика, складская логистика, система хранения и распределения, инновационное управление.

Abstract

The article comprehensively analyzes the theoretical and practical aspects of managing and developing warehouse operations within the logistics system. The

importance of warehouses in production and service processes, as well as their functional role in the logistics chain, is scientifically substantiated. The study examines opportunities to increase resource utilization efficiency, reduce costs, and improve the quality of logistics services through the enhancement of warehouse activities. It describes ways to boost operational efficiency by integrating modern technologies, automation, and digital solutions into warehouse systems. Additionally, a scientific classification of warehouse types based on their role in the production process and the service sector is provided. The conclusion offers practical recommendations for modernizing warehouse services, introducing innovative technologies, and developing human capital.

Keywords: warehouse management, logistics, warehouse logistics, storage and distribution system, innovative management.

KIRISH

Ombor yoki omborlar majmui xizmat ko'rsatish infrastrukturasini bilan birgalikda ombor xo'jaligini tashkil etadi. Sanoat korxonasida ombor xo'jaligining asosiy vazifasi — sanoatni tegishli moddiy resurslar bilan to'g'ri ta'minlash, ularning saqlanishini tashkil etish va omborxona amaliyotlari bilan bog'liq xarajatlarni imkon qadar qisqartirishdan iborat. Logistika tizimida omborlarning ahamiyati va o'rni juda muhim hisoblanadi.

Omborlar logistika tizimining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi. Logistika tizimi omborlarga bo'lgan tashkiliy hamda texnik-iqtisodiy talablarni shakllantiradi, omborlar tizimining maqsadini va eng maqbul ishlash mezonlarini belgilaydi, yuklarni qayta ishlash shartlarini aniqlaydi. O'z navbatida, materiallarni omborga joylashtirish (omborni joylashuvi, mahsulotlarni saqlash usullari va boshqalar) zaxiralarning logistika tizimidagi aylanish xarajatlari, miqdori va harakati ustidan sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ombor xizmati — logistika fanining o'rganish obyekti bo'lib, u tovar-moddiy boyliklarni omborga joylashtirish, yukni qayta ishlash va o'rash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Omborga joylashtirish — logistik kanal ishtirokchilari tomonidan zaxiralarni saqlash, ularning butligini ta'minlash, ratsional tarzda joylashtirish, hisobga olish, doimiy yangilash va xavfsiz xizmat ko'rsatish usullaridan iborat jarayonlardir.

Logistika tizimining samaradorligini ta'minlashda omborxona xo'jaligi faoliyatini boshqarish va rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Mahsulotlarni optimal saqlash, qayta ishlash va tezkor yetkazib berish jarayonlari omborxona operatsiyalarining samarali tashkil etilganiga bevosita bog'liqdir. Omborxona boshqaruvining takomillashtirilishi nafaqat resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, balki korxonalarning bozordagi raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi. Ombor xo'jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalar — avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli nazorat va tahlil vositalarini joriy etish operatsion jarayonlarning aniqligi va tezkorligini ta'minlaydi. Shu jihatdan, omborxona xo'jaligini samarali boshqarish va doimiy rivojlantirish logistika tizimining umumiy samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro innovatsion logistika, omborxona xo'jaligini boshqarish, omborxona logistikasi, shuningdek xalqaro transport tashuvlarida omborxona logistika xizmatini samarali tashkil etish bo'yicha ko'plab xorijlik va mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borgan.

Bunda chet ellik olimlardan Till Becker, Oliver Jeken, Julia Boppert va boshqalarning bir qator asarlari ushbu sohadagi tadqiqotlarga bag'ishlangan. MDH mamlakatlari iqtisodchilari tomonidan yozilgan asarlarda ham logistikada innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalari keng yoritilgan. Jumladan, G. Xamdanova, O. Astanakulov, A. P. Pankruxin, E. A. Utkin, Ye. P. Golubkov, G. L. Bagiyev, L. T. Danchenok, G. L. Gardariki va boshqalarni alohida ko'rsatish mumkin [1, 2, 3].

O'zbekistonlik logistik olimlar — xususan R. K. Rashidov, Y. Karriyeva, A. Kucharov va boshqalar ham innovatsion logistika hamda omborxona logistika nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar [6, 7, 8].

Shu bilan birga, ularning asarlarida omborxona logistikasi sohasidagi innovatsiyalar, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar omborxona logistika tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurati haqida fikrlar ilgari surilgan bo'lib, aynan shu yondashuv mazkur magistrlik dissertatsiyasining mavzusi, maqsad va vazifalarini aniqlab berdi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi [4, 5]. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o'rganish, shakllantirish va ulardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi [9].

Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste'mol qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishda davlat organlari hisobotlari va statistik ma'lumotlari, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari asosiy manbalar sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida funksional yo'naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash hamda modellashtirishning turli usul va vositalaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahsulotlarni omborda uzoq vaqt saqlashning salbiy tomoni shundaki, zaxiralarni saqlash bilan bog'liq xarajatlar hisobiga tovar narxi oshadi. Bu xarajatlar omborga joylashtirish amaliyotlari, omborxonani ijaraga olish, uni tartibda saqlash bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, omborxona zaxiralari tashkil etilishi natijasida boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin bo'lgan katta miqdordagi moliyaviy resurslar aylanishdan chiqib qoladi.


Shu sababli mahsulotlarni omborxonaga joylashtirish faqat xarajatlarni kamaytirishga yoki logistik servis sifatini oshirishga xizmat qilgan taqdirdagina

iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. Bu talabga tez javob berish yoki arzon narxlarda oldindan sotib olish hisobiga iqtisodga erishish shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Omborga joylashtirishning ijobiy tomoni shundaki, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish imkoniyati yaratiladi, yuklarni butlash, zaxiralarni to'plash va taqsimlashga zarur texnik va tashkiliy sharoitlar vujudga keladi. Demak, ombor xizmati logistikasi — bu ombor xo'jaligida oqimlarni qayta ishlash jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq operatsiyalar kompleksidir.

Ombor logistikasi va ishlab chiqarish logistikasi korxonaga ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda, resurslarni yetkazib berish, saqlash, boshqarish va ulardan foydalanish funksiyalarini bajarishda to'liq o'zaro aloqani ta'minlaydi.

Mahsulot iste'molchilari omborlari texnologik jarayon uzluksizligini ta'minlashga mo'ljallangan. Mazkur omborlarda tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari, asboblari, ehtiyot qismlar va boshqa resurslar saqlanadi. Ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga qarab, ishlab chiqarish tashkilotlarining omborlari quyidagi turlarga ajratiladi 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).




1-rasm. Ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga ko'ra omborxonalarining faoliyat yo'nalishlari¹

¹ Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini, shuningdek logistika va yuk tashuvlari, omborxona logistikasini rivojlantirish hamda sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Omborlarning roli va o‘rnini tahlil qilganda, ularni iyerarxiyaning turli bosqichlarida — ya’ni umumdavlat, mintaqaviy, lokal va ishlab chiqarish darajalarida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ombor xo‘jaligini tashkil etishning eng sodda variantlaridan biri keng tarmoqli tuzilmadir. Bunday tuzilmada qaysidir bir to‘plash punkti boshqa bir nechta punktlar uchun manba — ombor bo‘lib xizmat qiladi. Bu tizimning keyingi bosqichi eshelonlashgan tuzilma bo‘lib, u bir necha iyerarxik bosqich — joylashtirish eshelonlaridan iborat bo‘ladi. Bunday tizimda iste’molchilardan talablar eng quyi pog‘onadagi punktlarga tushadi. Normal sharoitda tovarlar har bir pog‘onadagi omborlar yaqin joylashgan yuqori pog‘onadagi ombordan to‘ldiriladi. Masalan, kirim omborlarining zaxiralari ulgurji mintaqaviy omborlardan to‘ldiriladi.

Ba’zan tovarlar omborga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazib beruvchidan keladi — bu holda regional yoki kirim omborlari chetlab o‘tiladi. Yoki regional ombordan tovarlar to‘g‘ridan to‘g‘ri oxirgi iste’molchi omboriga o‘tadi. Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga qarashli omborlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va boshqa mahsulotlarni saqlashga ixtisoslashgan bo‘lib, bunday omborlar, birinchi navbatda, ishlab chiqaruvchi iste’molchilarni zarur materiallar bilan ta’minlaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasiga qarab korxona omborlari turlari **2-rasmda** keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasiga qarab korxona omborlari turlari¹

Sotuvchi tashkilotlar omborlari tovarlarning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga uzluksiz harakatini ta’minlashga xizmat qiladi. Ularning asosiy vazifalari — ishlab chiqarish mahsulotini iste’mol mahsulotiga aylantirish hamda turli

¹ Muallif ishlanmasi

iste'molchilar, shu jumladan chakana savdo tarmoqlarining uzluksiz ta'minotini amalga oshirishdir.

Vositachi tashkilotlar (eng avvalo, transport tashkilotlari) moddiy boyliklarni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan holatlarda, omborga qo'shimcha joylashtirish uchun mo'ljallanadi. Bunday omborlarga temir yo'l stansiyalari omborlari, avtotransport, daryo yoki dengiz portlarining yuk terminallari, havo transporti terminallari kiradi. Bajarilayotgan yuklarni qayta ishlash amaliyotlarining turi bo'yicha bu omborlar bir transport vositasidan tushirilgan yuklarni boshqasiga ortish imkonini beradi.

Omborda materiallar zaxirasining harakati maxsus kartoteka yordamida hisobga olinadi. Zaxiralar darajasi miqdoriy yozuvlar asosida yoki buyurtmalar davriyligi tizimi bo'yicha tartibga solinadi. Omborxona xodimlari shtati — ombor amaliyotlari uchun zarur mehnat miqdori va murakkabligiga, qo'llanilayotgan transport vositalariga, yukni yuklash-tushirish va boshqa amaliyotlarning avtomatlashtirilganlik darajasiga qarab belgilanadi.

Omborga mahsulotlarni qabul qilish va joylashtirish tartibi tanlanayotgan joylashtirish shakliga bog'liq bo'lib, bu omborga egalik qilish yoki umumiy foydalaniladigan omborlardan foydalanish qaroriga bog'liq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Omborlar sonini aniqlash va ombor tarmoqlarini innovatsion loyihalar asosida tashkil etish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- Innovatsion investitsiyalarning maqsadlari nazariy jihatdan asoslanganligiga;
- Loyihani amalga oshirish uchun zarur ilmiy-tadqiqot va loyiha hujjatlarining mavjudligiga;
- Innovatsion loyiha texnik va iqtisodiy asoslanganligiga;
- Kerakli investitsiya mablag'larining mavjudligiga;
- Ishlab chiqarish jarayonida yangi namunaviy mahsulot turlarini to'liq o'zlashtirish imkoniga.

Innovatsion investitsiya samaradorligi — ishlab chiqarish davrida olingan yalpi foydaning oshib borishida namoyon bo'ladi. U ishlab chiqarishda yangilikni qo'llash orqali yaratilgan qo'shimcha mahsulot qiymatidan iborat bo'lishi lozim.

Omborxona faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Sotuvchilarga omborxona xizmatlari sifatini oshirish;
- Xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish;
- Aholi va korxonalar uchun xizmat ko'rsatishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- Maishiy va kompyuter texnikasi hamda ehtiyot qismlar uchun ombor imkoniyatlarini kengaytirish;
- Xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va xizmat sifatini oshirish;
- Zamonaviy asbob-uskunalaridan samarali foydalanish;
- Ma'muriy xarajatlardan doimiy nazorat o'rnatish va ularni qisqartirish choralarini ko'rish;

- Ilgʻor texnologiyalarni joriy etish va ularni iqtisod qilish imkoniyatlarini aniqlash;
- Rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda mahalliy ichki bozorga moslashtirish;
- Xodimlar malakasini doimiy oshirish va qayta tayyorlash, yosh mutaxassislarni jalb etish orqali yangi ish oʻrinlarini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. А.А. Трифилжва, А.Н. Воронков. Маркетинговая логистика. Учебная пособия. Санкт-Петербург. изд. “Союз” 2021 год.
2. Бауерсокс Доналд Дж., Клосс Дейвид Дж. Логистика: интегрированная сеп поставок / Пер. с англ. М.: ЗАО «Олимп — Бизнес», 2011.-640 с.
3. Миротин Л.Б., Ташбаев И.Э. Логистика для предпринимателя: основные понятия, положения и процедуры: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2021.
4. F.Xoʻjaev. “Logistika” darslik. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2022-yil.
5. Karriyeva Ya.K.Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. TDAU nashr tahririyati, T.: 2003 y.
6. F.Xoʻjaev, I.Muxtorova “Xalqaro logistika” oʻquv qoʻllanma Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2023-yil.
7. Kuziev, A., Muratov, A., Suyunov, O., Mardonov, S., & Samatova, B. (2025, February). Clark-Wright algorithm in routing small-batch cargo transportation. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.
8. Urokovich K. A., Doʻstmurodovich S. O. GʻALLA OʻRIM-YIGʻIM DAVRIDA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Механика и технология. – 2024. – №. 2 (9) Спецвыпуск. – С. 109-115.
9. Coals B. U. T. INTEGRATION OF LOGISTICS FUNCTIONAL AREAS AND THE PLACE OF WAREHOUSING IN THEM //International Journal Of Management And Economics Fundamental. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 50-57.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**